

UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

F.M.Asilova

TOSH DAU universiteti assistenti

To‘laganova Nilufar Akrom qizi

TOSH DAU universiteti talabasi

Annotatsiya. Respublikada bog’dorchilik, uzumchilik va vinochilik sohalarida ilmiytadqiqot ishlari ko’lamini kengaytirish, yangi eksportbop navlarni yaratish, ularning turlarini ko’paytirish, meva va uzum navlarining genofondini saqlash va boyitish, xorijiy nufuzli ilmiy muassasalar bilan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy salohiyatni yanada oshirish, intensiv ko’chatchilik tizimini yo’lga qo’yish, yersuv resurslaridan samarali foydalanish, hududlarni mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashtirish, hosildorlikni oshirish, zamonaviy resurslarni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy etish ishlari keng ko’lamda olib borilmoqda.

Аннотация. Расширение масштабов научно-исследовательских работ в области садоводства, виноградарства и виноделия в республике, создание новых экспортно-ориентированных сортов, воспроизводство их видов, сохранение и обогащение генофонда сортов фруктов и винограда, укрепление международного сотрудничества с зарубежными авторитетными научными учреждениями, дальнейшее наращивание научного потенциала, внедрение системы интенсивного селекции, эффективное использование земельно-водных ресурсов, привлечение регионов к выращиванию продукции. специализация, повышение производительности, ведется широкомасштабная работа по разработке современных ресурсосберегающих технологий и широкому внедрению в производство достижений науки.

Annotation. Expanding the scale of scientific research in the field of horticulture, viticulture and winemaking in the republic, creating new export-oriented varieties, reproducing their species, preserving and enriching the gene pool of fruit and grape varieties, strengthening international cooperation with reputable foreign scientific institutions, further building scientific potential, introducing a system of intensive breeding, efficient use of land and water resources resources, the involvement of regions in the cultivation of products. specialization, productivity improvement, large-scale work is underway to develop modern resource-saving technologies and widely introduce scientific achievements into production.

Kalit so‘zlar: Uzumchilik, vino bop uzum, klister, in-vitro laboratoriyalari, globallashuv, bozor, agrosanoat majmuasi, iqtisodiy samaradorlik.

Ключевые слова: виноградарство, виноград бор, клистер, лаборатории in vitro, глобализация, рынок, агропромышленный комплекс, экономическая эффективность.

Keywords: viticulture, wine bor grapes, clister, in-vitro laboratories, globalization, market, agro-industrial complex, economic efficiency.

Kirish.

Xozirgi kunda boshqa qishloq ho'jaligi soxasi yo'nalishi kabi Uzunmichilik, vinochilik soxasi ham ja'dal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu soxaga davlat tizimida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, viloyatlarda uzum ekish maydonlari kengaytirilmoqda. Yildan yilga uzumning hosildorlik darajasi ortib bormoqda. Ayniqsa vino bor uzum navlarini ekish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish, uzum yetishtirish, uni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha klaster tizimini yo'lga qo'yish, alkogol bozorini tartibga solishning samarali mexanizmlarini keng joriy etgan holda respublikani sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, sohaning eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsion jozibadorligini oshirish, shuningdek, vinochilik turizmini (enoturizm) rivojlantirish maqsadida 2023 — 2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida Prezidentimizning qarori qabul qilindi.

Qarorda mamlakatimizda uzumchilik va vinochilik sohasini kelgusida yanada barqaror rivojlantirish, yangi istiqbolli sanoat bor uzum navlarini ko'paytirish va yetishtirishni yo'lga qo'yish, qayta ishlash korxonalarini xom ashyo bazasi bilan ta'minlashni mustahkamlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, uzum va vinochilik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish maqsadida:

Respublikada 2023 — 2026-yillarda uzumchilik va vinochilikni kompleks rivojlantirish dasturi doirasida quyidagilar:

2023-2024-yillarda yangi uzumzorlarni barpo qilishning maqsadli ko'rsatkichlari; respublika hududlarida uzum ko'chatlarini tayyorlash bo'yicha tashkil qilinadigan “In-vitro” laboratoriyalari;

2023 — 2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sanoatini kompleks rivojlantirish bo'yicha “yo'l xaritasi” tasdiqlandi.

Uzunmichilik – qishloq xo'jaligining serdaromad sohalaridan biri. Chunonchi, bugungi kunga kelib dunyo bo'yicha **7 mln 300 ming gektar** uzumzor mavjud bo'lib, 1990-yilga nisbatan **700 ming** gektarga kamaygan. Shunday bo'lsada, yalpi hosil **77,5 mln. tonna** (183,0 mlrd dollar)ni tashkil etib, **130% foizga oshgan**. 2025-yilga kelib esa **90 mln tonnaga yetishi prognoz qilinmoqda**. Bu holat dunyo uzumchiligida

intensiv texnologiyalar hisobiga har bir gektardan hosildorlik oshib borayotganligini anglatadi.

Hozirda uzum yetishtirish maydoniga ko‘ra yetakchi mamlakatlar beshtaligi quyidagicha ko‘rinish olgan:

Ispaniya (955 ming ga), **Fransiya** (812 ming ga), **Xitoy** (785 ming ga), **Italiya** (718 ming ga), **Turkiya** (410 ming ga).

Aytish kerakki, bu mezon bo‘yicha O‘zbekiston yetakchi o‘ntalikka kiradi – 181 ming gektar, 7-o‘rin. Mamlakatimiz uzumzorlarining 85 ming gektarida xo‘raki, 73 ming ga kishmishbop, 23 ming ga sanoatbop uzum navlari yetishtiriladi.

Hosildorlikka kelsak, O‘zbekiston yetakchi beshtalikdan o‘rin oladi. Beshtalik esa, quyidagi tartibda aks etadi: **Hindiston** (212 s), **Xitoy** (176 s), **AQSH** (173 s), **JAR** (166 s), **O‘zbekiston** (150 s).

Umuman olganda, yurtimiz uzumzorlarida Dastlabki ma’lumotlarga asosan, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida respublika bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 52,2 ming tonna uzum yetishtirilgan.

Ushbu ko‘rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 5,7 % ga o‘sgan.

Uzum yetishtirish umumiy hajmining eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyati (29,4 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Shuningdek, Namangan (14,5 %), Qashqadaryo (12,6 %) va Buxoro (12,3 %) viloyatlarida ham uzum yetishtirishning yuqori ko‘rsatkichlari qayd etilgan.

Jahon uzum bozorida **AQSH** (1,7 mlrd dollar), **Niderlandiya** (1,1 mlrd), **Germaniya** (745 mln), **Buyuk Britaniya** (700 mln), **Xitoy** (586 mln) eng yirik importyorlar sanaladi. Uzum eksporti bo‘yicha esa, TOP-5 quyidagicha ko‘rinishda:



Chili (1,2 mlrd dollar), Niderlandiya (984 mln), AQSH (926 mln), Italiya (796 mln), Peru (690 mln). O‘zbekiston esa, 280 mln dollarga teng eksport ko‘rsatkichi bilan 13-o‘rinni egallab turibdi.

Respublikada uzumning ko‘pgina mahalliy noyob navlari yetishtirilmoqda. Xususan, “Pushti toyfi”, “O‘zbekiston muskati”, “Kattaqo‘rg‘on”, “Parkent”, “Rizamat”, “Nimrang”, “Husayni kelin barmoq” kabi navlar shular jumlasidan.

Uzumning **“Rizamat”** navi Akademik M.Mirzayev nomli bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasida yaratilgan. Yuqori sifatli, iste‘mol qilishga va qayta ishlashga mo‘ljallangan ushbu nav kasalliklarga chidamliligi bilan ajralib turadi. Eti qattiq uzum mevasi iyul oyining dastlabki 20 kunligida to‘liq pishib yetiladi.

“Sulton” deya nomlangan mahalliy navni Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy, Toshkent viloyatlariga ekishga tavsiya etilgan. Yuqori sifatli mayiz va sharob yetishtirishga mo‘ljallangan ushbu navli tokni muntazam sug‘orib turish lozim. Sovuqqa kam chidamli **“Sultoni”** navi 149 kunda pishib yetiladi.

Uzumning **“Parkent”** navi 1973-yildan Toshkent viloyatida ekish uchun Davlat reestriga kiritilgan. Ushbu xo‘raki nav sovuqqa va shudringga kam chidamli hisoblanadi. Undan sharoblar, shampän sharoblari tayyorlanadi. **“Parkent”** uzumining o‘rtacha hosildorligi gektariga 120-160 sentrni tashkil etadi.

“Xishrau kishmish” navi esa Akademik Mahmud Mirzayev nomli bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasida yaratilgan. Buxoro va Navoiy viloyatlarida ko‘proq ekiladi. Avgust oyining oxirgi o‘n kunligida pishib, yetiluvchi uzumdan mayiz tayyorlash, iste‘mol qilish va uzoq masofalarga jo‘natish uchun ishlatiladi. Hosildorligi gektariga 82,6 sentrni tashkil etadi.

Shifobaxsh va dardlarga malham uzum.

Uzumning shifobaxshlik xususiyati qadimdan ma‘lum. U tabobatda turli kasalliklar (sil, kamqonlik, kamquvvatlik, oshqozon-ichak, siydik yo‘li, yurak xastaligi va boshqalar)ni davolashda keng qo‘llanilgan. Uzum sharbatı, ayniqsa, yosh bolalar va keksalar uchun bebaho ozuqadir. U organizmda moddalar almashinuvini yaxshilash, qon tomirlarini kengaytirish, jigar faoliyatini yaxshilash, yurak muskullarini oziqlantirish, qonni tozalash va ko‘paytirishdek xususiyatlarga ega. Yangi uzilgan uzum tarkibida inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan olma, vino, limon, qahrabo, shovul, chumoli va boshqa bir qancha organik kislotalar, kaliy, kalsiy, fosfor, natriy kabi minerallar, meva po‘sti tarkibida rang beruvchi pigmentlar, dubil moddalar bor. Shuningdek, uzum danagi yuqori qon bosimida, surunkali venoz yetishmovchiligida, suyaklarni mustahkamlashda, teri salomatligida, kognitiv xususiyatlarining pasayishida, og‘iz bo‘shlig‘i salomatligida, shishlarda, yurak salomatligini

mustahkamlashda va boshqa kasalliklarning oldini olish va davolashda keng qo'llaniladi.

Uzumning ozuqaviy qiymati uning nechog'li yuqori kaloriyali, vitamin va minerallarga boyligini ko'rsatadi. Xususan, 1 porsiya ya'ni 100 gr uzumda 70 kkal kaloriya, 0,6 gr oqsil, 0,6 gr yog'lar, 0,6 gr kletchatka mavjud.

Uzum tarkibida B guruhidagi barcha vitaminlar, E, A, RR, K, S va D vitaminlari ham yetarlicha saqlanadi. Bundan tashqari, uzumda temir, mis, kaliy, kalsiy, magniy, rux, bor, vanadiy, alyuminiy molibden, pektin, selen, titan, kobalt, radiy anion, xlor, kremniy va oltingugurt kabi moddalar ham bor.

Global miqyosda olganda, mamlakatimizning jahon uzum bozorida egallagan bugungi maqomi tahsinga arzigulik. Ammo qishloq xo'jaligi vazirligi, soha mutasaddilari, mutaxassislar va fermer-dehqonlar bu boradagi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash, mavjud salohiyatni yanada kuchaytirish ustida ishlamoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 2023 — 2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida Prezident qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 20-martdagi PQ-4246-son qarori.
3. Пособие для производителей столового винограда. Кишенёв -2007. 6 ст
4. Shukur Temurov “Uzumchilik” Qishloq xo'jaligi o'quv yurtlari talabalri uchun darslik. – «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2005y.6-7 b.
5. Tok ko'chatlarini in vitro usulida mikroklonal ko'paytirish bo'yicha uslubiy qo'llanma. ToshDAU Toshkent 2018 y 5-11b.